

PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKILLANTIRISHDA ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH TEXNALOGIYASI

Qurbonnazarova Feruza Rustamovna
Termiz Iqtisodiyot va Servis universitete
Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3 – kurs talabasi

Anatatsiya: Maqolada pedagogik kompetentlikni rivojlantirishda elektron darsliklar yaratish texnologiyasining o'rnini yoritiladi. Elektron darsliklarning didaktik afzalliklari, ularni loyihalash bosqichlari va ta'lim jarayoniga integratsiyalash usullari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari elektron darsliklardan foydalanish o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirib, pedagogik kompetentlikni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik kompetentlik, elektron darslik, raqamli ta'lim, interaktiv resurslar, axborot texnologiyalari, ta'lim sifati, elektron didaktika, o'qituvchi mahorati, ta'lim resurslarini loyihalash, multimediya darsliklar.

Kirish: Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi o'qituvchilardan yangi pedagogik yondashuvlar, metodik mahorat va raqamli kompetentligini rivojlantirishni talab etmoqda. Elektron darsliklar shu jarayonning muhim vositalaridan biri sifatida o'quv jarayonini interaktiv, qulay va samarali tashkil etish imkonini beradi. Kompetentlikni shakllantirishda elektron darsliklar nafaqat o'quv materialini zamonaviy formatda taqdim etadi, balki o'qituvchi faoliyatida innovatsion yondashuvni kuchaytiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois elektron darsliklarni yaratish texnologiyasini chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism : O'quv fanlarini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, har bir kurs uchun tegishli elektron o'quv resurslar yaratish imkoniyatini beradigan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Bu vazifalarni pedagogika ta'lim muassasalari ta'lim yunalishlarida amalga oshirish katta ahamiyatga ega.

Elektron darslik (ED) – bu dars o'tish va o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazishning boshqa bir vositasidir. Bu shunchaki, darslik emas, balki simbiozdarslik, ma'lumotnoma, masalalar to'plami va amaliyot (praktikum) uyg'unligidir. O'quvchilar bilimlarini nazorat qilish EDning o'ziga kiritilgan. ED yordamida o'quvchi o'z bilimlari darajasini va ushbu mavzuni tushunishini baholashi mumkin. Zarur bo'lgan holatlarda u darhol yordam olishi yoki tushunmagan savollariga qayta tushuntirish olishi mumkin. An'anaviy darslikdan farqli ravishda ED axborotlarni turli shakllarda taqdim etishi mumkin. Bu yerda o'quv materiallarini vizual taqdim etish uchun dasturli vositalardan keng tanloashhamda grafiklar, animatsiyalar, gipermatn, tovushli olib borish imkoni mavjud.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Elektron darsliklarning afzalliklari

O'quv jarayonini samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi.

Murakkab mavzularni animatsiya va video orqali yengil tushuntiradi.

O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'qituvchiga darsni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Bir nechta qurilmada saqlash va ishlatish mumkin — portativ va arzon.

Elektron darslik turlari

Interaktiv elektron darslik

Multimedia darslik

Onlayn darslik

Mavzulashtirilgan virtual qo'llanmalar

Audio/video darsliklar

Elektron darsliklar o'quv jarayonini raqamlashtirish, pedagogik kompetentlikni oshirish, mustaqil o'rganish madaniyatini shakllantirish va ta'lim sifatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

Elektron darsliklarning asosiy xususiyatlari

1. Interaktivlik Testlar, mashqlar, animatsiyalar, videoroliklar, ovozli tushuntirishlar mavjud.
2. Multimedia qo'llab-quvvatlanishi .Matn, rasm, audio, video, grafikalar, 3D tasvirlar.
3. Qulay navigatsiya. Boblar bo'yicha oson qidirish, indeks va havolalar
4. Shaxsiylashtirish imkoniyati. Matnni kattalashtirish, ranglarni o'zgartirish, izoh qo'shish.
5. Masofaviy ta'lim uchun mosligi. Onlayn platformalar bilan integratsiya qilinadi (Moodle, Google Classroom va b.).

Xulosa : Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda elektron darsliklar yaratish texnologiyasi zamonaviy ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron darsliklar o'qituvchilarga o'quv materialini interaktiv, ko'rgazmali va multimediyaviy shaklda taqdim etish imkonini berib, dars samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarda mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, motivatsiya va kreativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi. Raqamli ta'lim vositalaridan oqilona foydalanish o'qituvchining metodik mahoratini kuchaytiradi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo'llashga sharoit yaratadi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begimqulov U.SH. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik ta'limni tashkil etish . 2024 .
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari va istiqbollari. 2016
3. R.A. Mavlonova , M . Imonova , R. Xasanov . Pedagogika tarixi . 1996 .
4. <https://inlibrary.uz>.
5. <https://in-academy.uz>.